

**O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINING
OBYEKTI, MAQSADI, VAZIFALARI, TAMOYILLARI VA FANNING
MOHIYATI**

*Ilmiy rahbar: Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Markaziy Osiyo Xalqlari Tarixi va Etnologiyasi kafedrası professori
Izzatilla Haydarov Muhammedovich*

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talabasi
Murodullayeva Maharram Rustam qizi
E-mail: muxarrammurodulayeva@gmail.com*

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining maqsadi, obyekti, vazifasi, tamoyillari va fanning mohiyati yoritib berilgan.

KALIT SO'ZLAR: eng yangi tarix, tamoyil, ijtimoiy iqtisodiy, islohotlar, Ilmiy-nazariy yondashuv, tarixiy xolislik

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlatning boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda bir qancha rivojlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, Ta'lim tizimida ham sezilarli islohotlar olib borilmoqda. Jahon miqyosida yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama qarshiliklarning mazmun-mohiyatini tahlil etish, turli xil yot

g'oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Oliy o'quv yurtlarida O'zbekistonning eng yangi davri tarixini chuqur o'rganish yosh mutaxassislarning bugungi davr siyosatini, jahon hamjamiyatidagi o'mini, davr qahramonlarini,

ayniqsa o'zining ham shu jarayon ishtirokchisi ekanligini to'g'ri va to'liq anglashi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi haqida so'z ketganda, avvalo 1991-yildan beri mamlakatimiz bosib o'tgan tarixiy yo'lning mohiyati va ahamiyatini tushunish kerak. Ushbu jarayon qanday o'tganini, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar va mustaqillikning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganligini tushunish muhimdir.

O'zbekistonning eng yangi tarixi, ya'ni O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab vaziyat, respublika mustaqilligining e'lon qilinishi, mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalardagi islohotlar va ularning bosqichlarini,

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar tashqi siyosat kabi masalalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib beradi. Maqolaning asosiy qismiga o'tar ekanmiz, O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining obyektidan boshlaymiz. Xo'sh, fanning obyekti nima?

Fanning obyekti -bu O'zbekiston tarixining eng yangi davri ekanligi uchun 1991- yildan to hozirgi kungacha bo'lgan voqea hodisalarni yaxlit holda o'z ichiga oladi.

Fanning predmeti -ana shu bir butun obyekt ichidagi aniq siyosiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy -iqtisodiy jarayonlar va ularning jamiyat hayotidagi tutgan o'rnidan iborat bo'ladi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining asosiy maqsadi - tarixni o'qitish orqali oquvchilar yurtimiz hududida kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilishga o'rganadi, mazkur jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlari, sabab va oqibatlarini tushunib

hamda ochib berish orqali yoshlarning ilmiy

dunyoqarashlarini shakllantirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy
salohiyatlarini yuksaltirish ajdodlar an'analariga sadoqat, milliy
o'zlikni anglashga o'rgatish asosiy maqsad qilib belgilanadi.

Shuningdek, istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan
demokratik islohotlar ularning mazmun-mohiyati hamda ahamiyati ochib
beriladi.

O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganar ekanmiz uning tamoyillari bilan
tanishib chiqamiz.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining tamoyillari

1.O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishdagi manba va materiallarda
chuqur ilmiylik,xolislik,tarixiylik,xronologik izchillik va tarixiy haqiqatlarning
ustuvorligi bo'lishi kerak.

2.Bo'lajak mutaxassislarda ushbu fan ilmlarini o'rganishda masalaning
mohiyatiga ilmiy-nazariy yondashuv fazilatlarini shakllantiradi.

3.O'zbekistonning eng yangi tarixi materiallarining barcha ma'lumotlarida
vatanparvarlik,tolerantlik,insoniylik kabi xislatlar g'oyasi ilgari suriladi.

4.Tarixiy mavzudagi materiallar umumbashariy
va milliy qadriyatlar ustuvorligi hamda tarixga hurmat e'tibor
ruhida shakllantirilgan.

5.Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida aholini ijtimoiy himoyalash,
dunyoviy davlat qurishning asosi bo'lgan
qonun ustuvorligiga erishish, qonun oldida barchaning tengligini
ta'minlash tamoyillari hisoblanadi.

O'zbekiston tarixini davrlashtirish borasida akademik A. Asqarov tomonidan
taklif etilgan fikrni bugungi kunda eng maqbul va maqsadga muvofiq deb
hisoblash mumkin. Olim quyidagi yettita asosiy davrni ko'rsatib o'tadi:

1) ibtidoiy to'da davri (1–40-ming yilliklar).

2) urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri (40-ming
yillikdan milodiy III–IV asrlargacha).

- 3) ilk o'rta asrlar davri (milodiy III–IV asrlardan to IX asr boshlarigacha).
- 4) o'rta asrlar davri (IX asr boshlaridan to XIX asrning o'rtalarigacha).
- 5) mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri (XIX asr o'rtalaridan 1917-yilgacha).
- 6) sovetlar (Sho'ro) davri (1917–1991-yillar).
- 7) milliy istiqlol, demokratik va fuqarolik jamiyati qurish davri.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, biz ushbu maqolada O'zbekistonning eng yangi tarixi fanining obyekti, predmeti, tamoyillari va davrlashtirish masalalariga to'xtalib o'tdik. Demak bu fanning asosiy mohiyati O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi murakkab va dinamik taraqqiyot yo'lini tushunish, uning sabab va oqibatlarini tahlil qilish, mamlakatning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari uchun xulosalar chiqarishdan iborat ekan. Bu fan, shuningdek, yosh avlodni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'ururni shakllantirish va tarixiy xolislikni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xaydarov I.M. O'zbekistonning eng yangi tarixi // O'quv qo'llanma.- Toshkent: Renessans press, 2024. - 452 bet
2. <https://tarix.sinaps.uz/lugat/davrlashtirish/>
3. O'zbekistonning eng yangi tarixi O'quv qo'llanma Haydarov.I.M. Askarov.M.M.